

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

60310100 – Siyosatshunoslik bakalavriat ta'lim yo'nalishining

MALAKA TALABI

Toshkent 2024

O'ZR O'IRIV
Buyruq № 218
2024 yil "25" 06

ISHLAB CHIQILGAN:

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024 yil "25" "06" dagi
218 - sonli buyrug'i bilan

JORIY ETILGAN:

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi

Mazkur Malaka talabi "Oliy ta'limning davlat ta'lim standard. Asosiy qoidalar", "Oliy ta'limning davlat ta'lim standard. Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori", O'zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me'yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi hududida Malaka talabini rasmiy chop etish huquqi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

| T/r | bet |
|---|-----------|
| 1. Umumiy tavsifi..... | 4 |
| 1.1. Qo'llanish sohasi..... | 4 |
| 1.1.1 Malaka talabining qo'llanilishi..... | 4 |
| 1.2.2 Malaka talabining asosiy foydalanuvchilar..... | 4 |
| 1.2. Kasbiy faoliyatlamining tavsifi..... | 4 |
| 1.2.1 Kasbiy faoliyatning sohalari..... | 4 |
| 1.2.2 Kasbiy faoliyatlamining obyektlari..... | 5 |
| 1.2.3 Kasbiy faoliyatlamining turlari..... | 5 |
| 1.2.4 Kasbiy vazifalar..... | 5 |
| 2. Kasbiy kompetensiyalarga qo'yiladigan talablar..... | 7 |
| 3. Amaliyotlarga qo'yiladigan talablar..... | 9 |
| 4. Fanlar katalogining tuzilish..... | 9 |
| Bibliografik ma'lumotlar..... | 11 |
| Kelishuv varag'i..... | 12 |

1. Umumiy tavsifi

60310100 – Siyosatshunoslik ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlash kunduzgi ta'lim shakllarida amalga oshiriladi. Kunduzgi ta'limda bakalavriat dasturining me'yoriy muddati 4 yil.

1.1. Qo'llanish sohasi

1.1.1. Malaka talabining qo'llanilishi.

Malaka talablari 60310100 – Siyosatshunoslik ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlovchi barcha oliy ta'lim muassasalari uchun talablar majmuyini ifodalaydi.

1.1.2. Malaka talabining asosiy foydalanuvchilari:

Mazkur ta'lim yo'nalishi bo'yicha malaka talablari, o'quv reja va o'quv dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o'quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas'ul hamda o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim muassasalarining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv bo'limi boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o'qituvchilari;

ta'lim yo'nalishining o'quv rejasi va o'quv dasturlarini o'zlashtiruvchi oliy ta'lim muassasasining talabalari;

bakalavriat bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlari;

oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;

oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirayotgan abituriyentlar, ularning otanonalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

1.2. Kasbiy faoliyatlarning tavsifi.

1.2.1. Kasbiy faoliyatining sohalari.

60310700 – Siyosatshunoslik ta'lim yo'nalishi – fan sohasidagi bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlari, davlat boshqaruvi organlari, mahalliy hokimiyat va vakillik organlari, siyosiy partiyalar, nodavlat notijorat tashkilotlarning boshqaruv organlari, ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni tahlili bilan shug'ullanuvchi aqliy markazlar, siyosiy tahlil ekspert guruhlari, siyosiy konsalting, siyosiy marketing bilan bog'liq kasbiy sohalar majmuasini qamrab oladi.

1.2.2. Kasbiy faoliyatlarining obyektlari:

O'zbekiston Respublikasi mudofaa tizimi, davlat xavfsizlik xizmati, milliy gvardiya, ichki ishlar organlari va ularning ilmiy-tadqiqot hamda aqliy markazlari;

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qo'mitalari va komissiyalari;

davlat hokimiyati va mahalliy boshqaruv organlari (vazirliklar, qo'mitalar, agentliklar, viloyatlar va tuman hokimliklari);

xalqaro tashkilotlar, xalqaro nodavlat tashkilotlar xizmatchisi, siyosiy menejment sohasi;

siyosiy texnolog, saylov kompaniyalarining menejeri, siyosatshunos-lingvistik tahlilchi, ekspert hamda jamoatchilik bilan aloqalar menejeri;

fuqarolik jamiyati instiutlari;

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatlarini rivojlantirish agentligi va uning hududiy bo'limlari;

xususiy sektorlardagi siyosiy konsalting xizmatlari;

60310100 – *Siyosatshunoslik* bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha bitiruvchilar pedagogik qayta tayyorlashdan o'tgan taqdirda, professional ta'lim yo'nalishi muassasalarida ta'limning vakolatli boshqaruv organlari tomonidan aniqlanadigan umumkasbiy va ixtisoslik fanlarini o'qitish bo'yicha pedagogik faoliyati bilan shug'ullanish huquqiga ega bo'ladi.

1.2.3. Kasbiy faoliyatlarning turlari:

- *ilmiy-tadqiqot;*
- *davlat-fuqarolik xizmatlarini ko'rsatish;*
- *tashkiliy - boshqaruv;*
- *axborot-tahliliy faoliyat;*
- *harbiy faoliyat.*

1.2.4. Kasbiy vazifalari.

60310100-Siyosatshunoslik ta'lim yo'nalishi bo'yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari, ob'ektlari va turlariga muvofiq, bakalavriat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo'lishi lozim:

Ilmiy-tadqiqot faoliyatda:

emperik – siyosiy tadqiqot metodologiyasiga ega bo'lish, bu bilimlarni nazariy va amaliy muammolarni hal qilishda qo'llay olish;

Respublika va xorijda chop etilgan siyosatshunoslikning nazariy va amaliy sohalariga oid ilmiy-amaliy axborotlar, uslubiy materiallar, o'quv adabiyotlarining ilmiy manbalarini o'rganish;

soha bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarishda bevosita ishtirok etish;

mavzu (topshiriq) bo'yicha ilmiy-amaliy ma'lumotlarni yig'ish, ishlov berish, tahlil qilish va olingan ma'lumotlarni tizimlashtirishda ishtirok etish;

ilmiy-tadqiqot natijalarini va ishlanmalarni amaliyotga tatbiq etishda ishtirok etish.

ilmiy-amaliy seminarlar, konferensiyalarni tashkil etish hamda ilmiy, tahliliy ommabop nashrlarda maqolalar bilan qatnashish;

zamonaviy siyosiy tahlil usullari va texnologiyalarni amaliy jarayonlarga qo'llash;

zamonaviy siyosiy jarayonlarda dolzarb bo'lgan tadqiqot natijalaridan xabardor bo'lish, ularni milliy manfaatlar nuqtai nazaridan qo'llay olish;

ilmiy asoslangan tizimlarni tavsiya etish va foydalanish;

siyosiy fanlar sohasiga oid ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish hamda ilg'or ilmiy-tadqiqot natijalarni va ishlanmalarni amaliyotga tatbiq etishda qatnashish bo'yicha faoliyat olib borish qobiliyatlariga ega bo'lishi lozim.

Davlat-fuqarolik xizmatlarini ko'rsatish faoliyatda:

fuqarolik jamiyatining dolzarb masalalarini bilish;
 dunyoqarash bilan bog'liq zamonaviy bilimlarga tizimli ega bo'lishi, mustaqil tahlil qila olishi, kasbiy faoliyatida ulardan samarali foydalana olishi;
 o'z vatani tarixini bilishi, milliy va umuminsoniy qadriyatlar masalalari yuzasidan o'z fikrini bayon qila olishi hamda ilmiy asoslay bilishi;
 sohaga oid innovatsiyalarni amaliyotga tatbiq qilishni tashkil etishi;
 jamoa ishini tashkil qila olish qobiliyati va fazilatlarini o'zlashtirishi;
 kasbga oid muammolarning yechimlarini amaliyotga tatbiq etish;
 fikrlar xilma xil bo'lgan sharoitda boshqaruv qarorini qabul qilish;
 nazorat qilish va amalga oshirilgan ishlarning natijalarini baholash;
 mehnat jarayonida xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha metodik va tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish qobiliyatiga ega bo'lishi;
 tashkilot, korxonalar, davlat idoralarini strategik rivojlantirishda xorijiy va milliy siyosiy bilimlarni boshqaruv tizimiga qo'llagan holda boshqarishni tashkil etish;
 davlat xizmatchilarini tayyorlash va malakasini oshirishda kompetensiyalarga asoslangan ta'lim (competence-based learning) modellarini joriy eta olish;
 davlat xizmati faoliyat samaradorligini baholash tizimini tatbiq qilish;
 davlat organi tarkibiy tuzilmasi (idoraviy mansub va hududiy tashkilot)ga yuklatilgan aniq ko'rsatkichlar ijrosini ta'minlash darajasini baholash;
 xodimlarning professional tayyorgarlik darajasini oshirib borish, ish faoliyatiga innovatsiyalarni qo'llash, xorijdagi siyosiy fanlar yutuqlarini ish jarayoniga olib kirish, mehnat resursaridan ratsional foydalanish, mehnatni rag'batlantirishning KPI (samaradorlikni baholash mezonlari) yangicha usullarini boshqaruv jarayoniga olib kirish;
 mehnat faoliyatida "raqamli boshqaruv" jarayonini qo'llash, zamonaviy boshqaruv usullari hamda jamoa bilan ishlar tizimini tashkil etish, xodimlarni rag'batlantirish jarayonini oshirib borishning yangicha kreativ usullarini boshqaruv jarayonlariga tatbiq etish;
 davlat xizmatlari sifati va ulardan foydalanish imkoniyatini oshirish hamda davlat xizmatchilari faoliyatini davlat xizmatlari iste'molchisi sifatida aholiga qaratishning zamonaviy mexanizmlarini joriy etish.

Tashkiliy – boshqaruv faoliyatda:

inson kapitalini rivojlantirish, uzluksiz ta'lim, tashkilotning kadrlar potentsiali va personalni baholash, time-management (vaqtdan samarali foydalanish), yagona milliy mehnat tizimida xodimlar ma'lumotlari bilan ishlash;
 o'z professional, nazariy va amaliy bilimlarini uzluksiz oshirib borishi, dunyoqarashi, bilim va tajribasini doimiy ravishda kengaytirishi, yangi bilimlarni

o'zlashtirishga intilish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalangan holda yangi axborotlarni olish, ilg'or tajribalarni o'rganish;

aholi bilan muloqot qilish madaniyatiga ega bo'lish, jamoat joylarida o'zini munosib tutish, shaxsiy xulq-atvorini nazorat qilib borish;

o'zining va xodimlarining salomatligi uchun qayg'urish, qo'l ostidagilarga g'amxo'rlik qilish va ularni ruhlantira olish, namunali ish olib borayotganlarni rag'batlantirish;

Axborot-tahliliy faoliyatda:

boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun tashkilotning tashqi va ichki muhiti omillari to'g'risidagi ma'lumotlarni to'plash, qayta ishlash va tahlil qilish;

qaror qabul qilish, faoliyatni rejalashtirish va boshqarish uchun ma'lumot to'plash, tashkilotning ichki axborot tizimini yaratish va uning ishlashini boshqarish;

tashkilotning ichki hujjat aylanishi tizimini ishlab chiqish va boshqarish, tashkilotlar faoliyatining turli ko'rsatkichlari bo'yicha ma'lumotlar bazasini yuritish;

loyihalar samaradorligini baholash;

axborot-tahlil faoliyati natijalari bo'yicha hisobot tayyorlash;

boshqaruv qarorlarining samaradorligini baholash.

Harbiy faoliyatda:

O'zbekiston Respublikasining harbiy siyosatini mazmun-mohiyatini bilish, uning o'ziga xos xususiyatlarini tizimli tahlil etish;

xavfsizlik va strategik tadqiqotlarning nazariy va amaliy ahamiyati borasidagi konseptual bilimlarni o'z kasbiy faoliyatida qo'llay olish;

mintaqa va xalqaro miqyosdagi harbiy tadqiqotlar faoliyati haqida nazariy bilimlarni egallash;

xalqaro miqyosdagi harbiy majoralarning tabiatini aniqlash va kasbiy faoliyatida milliy manfaatlar nuqtai nazaridan tahlil etish;

ichki va tashqi siyosatda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavf va tahdidlarni baholash va ularni ko'lamini tizimli tahlil etish ko'nikmasini shakllantirish orqali o'z-o'zini takomillashtirib borish.

2. Kasbiy kompetensiyalarga qo'yiladigan talablar.

davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy-iqtisodiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olish;

xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, tabiiy ilmiy fanlar bo'yicha kasbiy faoliyati doirasida zaruriy bilimlarga ega bo'lishi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda kasb faoliyatida foydalana bilish;

axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatida qo'llay bilishi, axborotlarni yig'ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo'lishi, faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olish;

yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish;

sog'lom turmush tarzi va unga amal qilish zarurati to'g'risida tassavvurga ega bo'lish.

ta'lim yo'nalishi ixtisoslik fanlarni o'rganish va chuqur egallash uchun zarur bo'lgan fundamental umumkasbiy bilimlarni, amaliy ko'nikma va o'quvlarni shakllantirish;

ta'lim yo'nalishiga muvofiq kasb faoliyati sohalarida erishilgan asosiy yutuqlar, muammolar va ularning rivojlanish istiqbollari haqida tasavvur hosil qilishni;

tegishli bakalavriat yo'nalishi doirasida tanlangan mutaxassislik bo'yicha magistraturada oliy ta'limni davom ettirish;

xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunish va kasbiy faoliyati uchun yetarli darajada undan foydalana olishi;

olingan kasbiy tajribani tanqidiy ko'rib chiqish, o'z-o'zini rivojlantirish, malaka oshirish va o'z kasbiy faoliyatining turi hamda xarakterini o'zgartirishga qodir bo'lishi;

axborotlarni yig'ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini bilish va faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olishni;

siyosatshunoslik sohasini ilmiy-texnologik anglash orqali, uning nazariy, emperik, fundamental va amaliy asolarini qo'llash bilishni;

amaliy siyosatshunoslikning tadqiqot usullari, bosqichlari va tarkibiy qismlari, saylov kampaniyalarini o'tkazish texnologiyalarini bilish va qo'llay olish;

siyosiy jarayonlarning vujudga kelishi, bosqichlari va shakllarini hamda siyosiy jarayonlarni tizimli-funksional tahlilini amalga oshirishni;

dunyoda kechayotgan turli siyosiy voqea-hodisalar va jarayonlarning mazmun-mohiyatini chuqur hamda ishonchli manbalar vositasida o'rganish, shuningdek mazkur voqea-hodisalar va jarayonlarni tahlil qilish, tegishli xulosa chiqarish hamda ularning kelgusi holatiga oid bashorat qilish borasida bilim va ko'nikmani amalda qo'llay olishni;

xalqaro munosabatlarning rivojlanish qonuniyatlari, asoslari va tamoyillarini, zamonaviy xalqaro munosabatlarda milliy va strategik manfaatlarni hisobga ola bilishni;

Sharq va G'arb mutafakkirlarining qarashlarida siyosiy hokimiyatni shakllanishi, uni amalga oshirish xususiyatlari, siyosiy hokimiyatning legitimligi va legallik darajalarini aniqlay olishi;

zamonaviy xalqaro xavfsizlik tizimida O'zbekiston Respublikasining ishtirokini milliy manfaatlar nuqtai nazardan qo'llay olishni;

jahon siyosatining paradigmalariga tayangan holda O'zbekiston Respublikasining zamonaviy jahon siyosatidagi o'rnini anglashni;

siyosiy texnologiyalarning zamonaviy siyosiy jarayonlardagi tutgan o'rnini baholash hamda tashkiliy boshqaruvda foydalana olishni;

siyosatshunoslikning metodologik usullarini amaliyotda qo'llay olish;

siyosiy konfliktlarni anglash va baholash hamda yechimini topish usullarini kasbiy faoliyatda foydalana bilish;

qiyosiy siyosatshunoslikning usullari, qiyosiy siyosatshunoslikda "keys" "field research" usullarini davlat va jamiyatga xos siyosiy madaniyatni qiyoslash jarayonlariga tadbiiq etish borasida ilmiy bilimlar, amaliy mahorat va ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.

3. Amaliyotga qo'yiladigan talablar.

Malaka amaliyot - umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg'unlashtirish, tegishli amaliy ko'nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi.

Ta'lim yo'nalishi bo'yicha quyidagi amaliyotlar o'tkaziladi:

1. O'quv tanishuv amaliyoti;
2. Ishlab chiqarish amaliyoti;
3. Bitiruv oldi amaliyoti.

4. Fanlar katalogining tuzilish

| T.r | Fanning malakaviy kodi | O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlari | Umumiy yuklamaning xajmi, soatlarda | Kredit miqdori | Semestri |
|-------------|------------------------|---|-------------------------------------|----------------|----------|
| 1.00 | | Majburiy fanlar | 5040 | 168 | |
| 1.01 | O'YT1104 | O'zbekistonning eng yangi tarixi | 120 | 4 | 1 |
| 1.02 | JMS1104 | Jismoniy madaniyat va sport | 120 | 4 | 1 |
| 1.03 | FAL1204 | Falsafa | 120 | 4 | 2 |
| 1.04 | O'RT1204 | O'zbek (rus) tili | 120 | 4 | 2 |
| 1.05 | XT1104 | Xorijiy til | 120 | 4 | 1 |
| 1.06 | DIN1404 | Dinshunoslik | 120 | 4 | 4 |
| 1.07 | KOH1106 | Konstitutsiyaviy huquq | 180 | 6 | 1 |
| 1.08 | STT1112 | Siyosiy ta'limotlar tarixi | 360 | 12 | 1,2 |
| 1.09 | SIK1112 | Siyosatshunoslikka kirish | 360 | 12 | 1,2 |
| 1.10 | SMA1204 | Siyosiy madaniyat, mafkura va antropologiya | 120 | 4 | 2 |
| 1.11 | KRA1204 | Kratologiya | 120 | 4 | 2 |
| 1.12 | SIM1306 | Siyosiy menejment | 180 | 6 | 3 |
| 1.13 | GEO1310 | Geosiyosat | 300 | 10 | 3,4 |
| 1.14 | AMS1308 | Amaliy siyosatshunoslik | 300 | 10 | 3,4 |
| 1.15 | DAB1310 | Davlat boshqaruvi | 300 | 10 | 3,4 |
| 1.16 | SJT1310 | Siyosiy jarayonlarning tizimli tahlili | 300 | 10 | 3,4 |
| 1.17 | JAS1308 | Jahon siyosati | 240 | 8 | 3,4 |
| 1.18 | XAM1512 | Xalqaro munosabatlar | 360 | 12 | 5,6 |

| | | | | | |
|-----------------------|---------|---|-------------|------------|--------------|
| 1.19 | SIT1510 | Siyosiy texnologiyalar | 300 | 10 | 5,6 |
| 1.20 | XAA1506 | Xavfsizlik asoslari | 180 | 6 | 5 |
| 1.21 | SIK1606 | Siyosiy konsalting | 180 | 6 | 6 |
| 1.22 | SIK1706 | Siyosiy konfliktologiya | 180 | 6 | 7 |
| 1.23 | SIT1706 | Siyosiy tahlil | 180 | 6 | 7 |
| 1.24 | ZIS1706 | Zamonaviy iqtisodiy siyosat | 180 | 6 | 7 |
| 2.00 | | Tanlov fanlar | 1080 | 36 | 5,6,7 |
| 2.00 | | <i>Tanlov fanlar</i> | 1080 | 36 | |
| Klassifikasiya | | siyosatshunos, siyosiy tahlilchi | | | |
| | | Jami | 6120 | 204 | |
| | | Malaka amaliyoti* | 840 | 28 | 2,4,6,8 |
| | | BMI (Yakuniy davlat attestatsiyasi) | 240 | 8 | |
| | | Jami | 1080 | 36 | |
| | | Hammasi | 7200 | 240 | |

* OTM o'quv jarayonlarini tashkil etish hususiyatidan kelib chiqib, semestrlar uchun belgilangan umumiy kredit miqdorini muvofiqlashtirgan holda fanlar o'tiladigan semestrlarni o'zgartirishi mumkin.

** Ta'lim yo'nalishlarining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda malaka amaliyot ta'lim jarayonining tegishli qismida uzluksiz 15 hafta hajmida belgilanadi. 15 haftalik malaka amaliyoti ma'lum bir semestrga to'liq hajmda qo'yilgan taqdirda fanlar katalogida ushbu semestrdagi o'quv fanlar mashg'ulotlari belgilanmasligi lozim (Masalan, malaka amaliyoti to'liq 6-semestrga qo'yildi, bu holda fanlar katalogining 6-ustunida bironta o'quv fani qatorida 6-semestr qayd etilmaydi. 6-semestr faqat "Malaka amaliyoti" qatorida ko'rsatiladi).

Bibliografik ma'lumotlar

UDK: 002-651.1/7

Guruh T 55

OKS 01.040.01

Tayanch so'zlar:

Kasbiy faoliyat turi, ta'lim yo'nalishi, kasbiy faoliyat obyekti, kasbiy faoliyat sohasi, bakalavriatning asosiy o'quv reja va o'quv dasturlari, profil, o'qib-o'rganish natijalari, tarmoqlar va sohalar, malaka talablari, bakalavriatning o'quv jarayoni, siyosatshunoslik fanining predmeti va metodi, hokimiyat munosabatlari nazariyasi, siyosiy hayot, uning asosiy belgilari, siyosatning sub'ektlari, siyosiy jarayonlarning tizimli tahlili, siyosiy tahlil usullari, siyosiy jarayonlarni bashorat qilish va modellashtirish, siyosiy konsalting, konfliktlar tipologiyasi, xalqaro munosabatlar tizimi, jahon tartiboti, Markaziy Osiyo geosiyosati, mustaqil ta'lim, ishlab chiqarish, tashkiliy-boshqaruv faoliyati, malaka amaliyoti, bitiruv malakaviy ishi, davlat attestatsiyasi, o'quv fanlari bloki, oliy ta'lim muassasasi, ta'lim jarayoni, boshqaruv jarayoni, ishlab chiqarish, loyihalash, ilmiy tadqiqot jarayoni.

Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy turdosh oliy ta'lim muassasalari hamda kadrlar iste'molchilari

ISHLAB CHIQILGAN:

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti

Rektor U. Madjidov

2024-yil "12" _____



KELISHILGAN:

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlar markazi

Direktor M. Boltaboyev
" " " " 2024-y.

M.O'



O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlari instituti

Direktor A. Toshpulatov
" " " " 2024-y.

M.O'



O'zbekiston Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti

Rektor Sh. Qudratxo'ja
" " " " 2024-y.

M.O'



O'zLiDeP Siyosiy Kengashi Ijroiya qo'mitasi

Rais A. Xayitov
" " " " 2024-y.

M.O'

